

O'ZBEK RAQS SAN'ATINI RIVOJLANISHIDA SURXONDARYO FOLKLOR RAQSLARINING O'RNI

Abduzohidova Dildora Abdunabi qizi

O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi "San'atshunoslik" yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining boy madaniy merosi tarkibida folklor raqslarining o'rnini tahlil qilinadi. Surxondaryo raqs san'ati o'zining qadimiyligi, rang-barangligi va marosimiy xususiyatlari bilan O'zbekistonning raqs madaniyati rivojlanishiga beqiyos hissa qo'shgan. Mazkur maqolada ushbu hududning folklor raqslari shakllanishi, ijro texnikasi va mazmuniy jihatlari hamda ularning O'zbekiston raqs san'atiga bo'lgan ta'siri o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Surxondaryo, folklor raqslari, milliy raqs san'ati, marosimiy raqslar, O'zbekiston madaniy merosi, raqs ijrochiligi, an'anaviy san'at.*

Аннотация: *В данной статье анализируется роль народных танцев в богатом культурном наследии Сурхандарьинской области. Искусство танца Сурхандарьинской области с его древностью, многообразием и ритуальными особенностями внесло неоценимый вклад в развитие танцевальной культуры Узбекистана. В данной статье исследуются формирование, техника исполнения и содержательные аспекты фольклорных танцев данной территории, а также их влияние на танцевальное искусство Узбекистана.*

Ключевые слова: *Сурхандарьинская, народные танцы, национальное танцевальное искусство, обрядовые танцы, культурное наследие Узбекистана, танцевальное исполнительство, традиционное искусство.*

Abstract: *This article analyzes the role of folk dances in the rich cultural heritage of Surkhondaryo region. The dance art of the Surkhondaryo region, with its antiquity, diversity and ritual features, has made an invaluable contribution to the development of dance culture in Uzbekistan. This article examines the formation, technique of performance and substantive aspects of folklore dances of this territory, as well as their influence on the dance art of Uzbekistan.*

Keywords: *Surkhondaryo, folk dances, national dance art, ritual dances, cultural heritage of Uzbekistan, dance performance, traditional art.*

KIRISH

O'zbekistonning madaniy merosida raqs san'ati alohida o'rin tutadi. Turli hududlarning iqlimiy, etnik va tarixiy xususiyatlari ularning raqs madaniyatiga ham o'ziga xoslik bag'ishlagan. Shu jumladan, Surxondaryo viloyati boy va qadimiy folklor an'analariga ega bo'lib, uning raqs san'ati milliy madaniyatni boyituvchi muhim unsurlardan biridir.

Surxondaryo raqslari o'ziga xos harakatlar tizimi, musiqiy jo'rligidagi uyg'unlik va dramatik mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu hududning geografik joylashuvi, Markaziy Osiyo madaniy mintaqalari bilan yaqin aloqasi va ko'p asrlik tarixiy jarayonlar Surxondaryo folklor raqslarining shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Surxondaryo raqs san'ati nafaqat o'zbek milliy raqs madaniyatini, balki xalqning an'ana va urf-odatlarini aks ettiruvchi ma'naviy hodisa sifatida ham diqqatga sazovordir.

Tog'li Boysundagi Machay va Qo'rg'oncha qishloqlarida folklor xarakteri marosimiy jumladan, diniy-marosimiy to'y qo'shiqlari, mehnat asosan, sut sog'uvchilar, junga ishlov beruvchilar va alla qo'shiqlari, boshqa tumanlarda va shaharlarda esa mavzu va ijro an'analari xilma-xil bo'lgan xalq qo'shiqlari: qo'shiq, yalla, lapar va ashula janrlarida ijro etiladi. Boysunda birinchi qo'sh, hosil yig'im-terim va ularga ishlov berish bilan bog'liq mehnat qo'shiqlarini ijro etish xarakterlidir, shuningdek, afsungarlik va baxshilik qo'shiqlari uchraydi. Mintaqaga xos so'fiylar marosimlarida urf bo'lgan "Jahr", shuningdek "Alas" - xalos va "Qushnoch" cholg'u jo'rligisiz kuylab ijro etiladi. Kuy va qo'shiq ijrosidagi harakat, rasm-rusm, atributika, tuzilma va o'ziga xos ritmik zarblar ularning "Shamanizm" bilan mushtarakligidan darak beradi[1].

Ushbu maqola Surxondaryo folklor raqslarining tarixiy asoslari, ularning badiiy va texnik xususiyatlarini hamda O'zbekistonning umumiy raqs san'atiga qo'shgan hissasini yoritishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili

Surxondaryo folklor raqslari o'zbek raqs san'atining shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Mazkur hududning boy folklor merosi haqidagi tadqiqotlar milliy san'atning tarixi va ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini yoritishda asosiy manba hisoblanadi. O'zbekiston raqs san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar, xususan, U. Tansiqboev, T. Sodiqov, va B. Qodirovning ishlari, milliy raqsning texnikasi, mazmuniy jihatlari va regional xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan.

Surxondaryo folklor raqslari haqida to'plangan ma'lumotlar ko'pincha xalq marosimlari, qadimiy bayramlar va diniy e'tiqod bilan bog'liq. Ushbu hududda o'tkazilgan etnografik tadqiqotlar, jumladan, E. Rtveladze va A. M. Buranov tomonidan olib borilgan izlanishlar, folklor raqslarining ildizlari qadimiy sivilizatsiyalar davriga borib taqalishini ko'rsatadi. Xususan, Surxondaryo hududidagi qadimiy ayollar raqslari mehnat marosimlari va tabiat bilan uyg'unlikni ifodalaydi.

Adabiyotlarni tahlil qilish davomida shuni anglash mumkinki, Surxondaryo raqs san'ati milliy va mintaqaviy jihatdan boy madaniy qatlamlarga ega bo'lib, uning shakllanishiga hududning etnik xilma-xilligi va ko'p asrlik tarixiy jarayonlari kuchli ta'sir ko'rsatgan. Ammo ushbu hududning folklor raqslari bo'yicha tizimli ilmiy izlanishlar yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli bu sohani chuqurroq o'rganishga ehtiyoj mavjud.

Muhokama

Surxondaryo folklor raqslari O'zbekistonning madaniy xilma-xilligi va boy merosining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi milliy raqs san'ati tamoyillarini boyitishga xizmat qilgan. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu hududning folklor raqslari marosimiy va ijtimoiy jarayonlarning integral qismi sifatida ko'p asrlik tarixiy tajribani aks ettiradi.

Surxondaryo folklor raqslari o'ziga xos harakatlar tizimi, dramatik ifoda va musiqiy jo'rliigi bilan milliy raqs san'atining boshqa turlaridan ajralib turadi. Raqslarning ko'p qismi mehnat faoliyatiga, marosimlarga va tabiat bilan uyg'unlikni ifodalashga asoslangan bo'lib, bu ular uchun maxsus ritm, harakatlar va sahnaviy ifoda tizimini shakllantirgan. Ayniqsa, ayollar raqslari nafislik va noziklik bilan, erkaklar raqslari esa kuchli harakat va irodaviy xarakter bilan ajralib turadi.

Maydon tadqiqotlari davomida aniqlanganki, Surxondaryo raqs san'ati xalqning ijtimoiy hayoti, e'tiqodlari va estetik qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir. Masalan, bahoriy "Boychechak" raqsi tabiatning uyg'unishi bilan bog'liq bo'lsa, "Qizlar o'yini" kabi raqslar yosh qizlarning jamoaviy o'yinlarida ijro etilgan. Ushbu raqslar xalqning ko'p asrlik hayoti va qadriyatlarini aks ettiruvchi ko'zgoday namoyon bo'ladi.

Shuningdek, Surxondaryo folklor raqslari musiqiy va harakatli uyg'unlikning yuqori darajasi bilan tavsiflanadi. Raqslar davomida ishlatiladigan an'anaviy cholg'u asboblari – doira, nog'ora va surnay – ijro harakatlariga dramatism va ritmik o'ziga xoslik bag'ishlaydi.

Ammo shuni qayd etish kerakki, zamonaviy raqs san'ati rivojlanishi jarayonida Surxondaryo folklor raqslari, ba'zan, texnik va sahnaviy jarayonlarga moslashtirilganligi sababli o'zining an'anaviy tabiiyligini yo'qotmoqda. Bu holat, ayniqsa, yosh avlod orasida ushbu raqslar haqidagi bilimsizlik bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, folklor raqslarini saqlab qolish va rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlarni olib borish muhimdir.

Natijalar

Ushbu raqslar milliy raqs san'atining tarixiy asoslarini ifodalash bilan birga, xalqning ijtimoiy, ma'naviy va estetik qadriyatlarini aks ettiruvchi san'at namunasi sifatida yuqori ahamiyat kasb etadi.

Surxon raqs maktabida "Boysun mavrigi" raqsi alohida ahamiyatga ega. Bu raqs eng qadimiy raqslardan biri bo'lib, tuzilishi, harakatlari, mazmuni va ko'rinishi bilan boshqa raqslardan katta farq qiladi. "Mavrigi" raqsi odatda davra o'rtasida yakka raqqos tomonidan ijro etilgan. Raqs davomida davra ishtirokchilari ham faol ishtirok etib, o'rtadagi raqqosning harakatlariga dalda berib, qarsak chalib turganlar. Har qanday marosimda yakka raqqosni yetti nafar yoki to'qqiz nafar yigitlar tiz cho'kib, doyra shaklida o'rab turganlar. Bu davrani "Qur" deb ataganlar. Qurda aynan yettita yoki to'qqizta yigitning bo'lishi, qadimdan turkiy xalqlarda "7" raqami balo-ofatlardan qo'riqlovchi, "9" raqami esa baxt keltiruvchi deb tushunilganidan bo'lsa kerak[2].

Surxondaryo raqslari o'zining marosimiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ular

xalqning turmush tarzini, e'tiqodlarini va tarixiy tajribasini o'zida aks ettirgan holda madaniy meros sifatida qiymat kasb etadi.

Surxondaryo raqslarining harakatlar tizimi, musiqiy uyg'unligi va sahnaviy ifodasi milliy raqs san'atiga xos texnik xususiyatlarni boyitishda muhim rol o'ynaydi. Ularning nafisligi va dinamikasi zamonaviy sahnaviy raqs texnikalarining rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

Raqs faqat bir millatga xos san'at emas, balki umuminsoniy badiiy ijodning mahsuli bo'lib, dunyoning barcha millatlariga xos san'at turidir. Inson hayotning go'zalliklari, o'zining bu keng olamdagi o'rnini, o'z tuyg'ulari, nozik hislari, falsafiy o'ylarini gavda harakatlari bilan ifoda etishga ehtiyoj sezgandagina to'laqonli raqs san'atini yaratgan. Bu sirli ehtiyojni qondirish inson hayotining bir bo'lagiga aylangan. Xalq orasida shakllangan o'yinlarda ijrochi o'z bilganiday erkin taqlidiy harakatlar qilsa, raqs ijrochisi ma'lum harakatlar majmua chegarasidan chiqmasdan, ma'lum qoidalar asosida muayyan harakatlarni ijro etib o'zi ijro etayotgan raqsning falsafiy mazmunini ochib beradi. Har bir raqs inson ma'naviyatining bir qirrasini ochadi[3].

Folklor raqslarini saqlab qolish va ularni yosh avlodga yetkazish uchun maxsus ta'lim dasturlari, raqs ansambllarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash va xalqaro miqyosda targ'ibot ishlarini olib borish zarur.

Mazkur tadqiqot Surxondaryo folklor raqslarining boy tarixiy va madaniy xususiyatlarini aniqlashga va ularning milliy san'atni rivojlantirishdagi o'rnini yoritishga qaratilgan bo'lib, natijalar milliy raqs san'atini saqlash va rivojlantirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Surxon raqs maktabi uslubi va bu maktabga mansub raqslar, raqslardagi turli harakatlar tasviri haqida yozayotganda asosan Boysun tumani Markaziy madaniyat uyi qoshidagi "Boysun" folklor-etnografik ansamblda to'plangan materiallaridan ijodiy foydalandik.

Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy hududidagi Boysuntog' tizmasining yonbag'rida joylashgan Boysun tumani Respublikamizning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri hisoblanadi.

Boysun tumanida 94 ming nafar atrofida aholi yashaydi.

Boysun tumani hududida yashagan elatlar Markaziy Osiyoda yashagan barcha turkiy xalqlarning tarixiy kechinmalarini o'z boshidan o'tkazgan. Bu hudud qadimiy Ipak yo'lining strategik nuqtalaridan biri bo'lgan savdo yo'lida joylashgan va bojxona xizmatini o'tagan, tarixda «Temir darvoza» deb nom olgan Darband qishlog'i faqat Baqtriya mamlakatini Movarounnahr bilan emas, balki shimoliy mamlakatlarni Hindiston bilan bog'lovchi katta karvon yo'llaridan biri bo'lgan. Tabiiyki, madaniy aloqalarning chorrahasida joylashgani uchun bu hududda yashagan aholining madaniy va ma'naviy salohiyati baland bo'lgan.

Boysun qadimdan o'zining san'ati bilan ham mashhur bo'lib kelgan. XX asrning boshlarida yashagan boysunlik san'atkorlar Hoji Bolta raqqosning ijro etgan raqslari,

Orzigul ismli raqqosa ayolning betakror ijrolari, hofiz Usta Qurbon Davlatmamat o'g'li va Mulla Juma Dutoriylarning qo'shiqlari xaqida Boysun aholisi orasida hozirgacha afsonalar yuradi.

Surxon raqslarida ham barcha harakatlarning alohida nomlanishi bo'lib, ularning har bittasi ma'lum ma'noga ega. Masalan: “to'iqama”(gavdaning erlik to'lg'anishi), “tebranma” (gavdaning ma'lum yo'nalishda tebranishi), “irchitma”(raqs davomida oyoq harakati yordami bilan yuqoriga qarab sakrash), “g'ajir qo'ndi”(oyoq harakati, o'ng oyoq tizzadan orqaga bukilib ko'tariladi), “qanot”(qo'llarni ikkiyonga qanotdek yozib bajariladigan harakat), “qur”(yakka raqqosni davra bo'ylab o'rab olish), “mo'ralash”(zimdan qarash harakati), “muloyim”(oyoq harakati, oyoq noziklik bilan qadam tashlashi), “shilshila”(qo'lni behold silkitib harakat qilish), “siltama”(qo'l va oyoq harakati, qo'l va oyoqlar ma'lum tomonga keskin uzatiladi yoki tana tomon harakatlashishi), “uchirma”(uchirma turgan joyida sakrash harakati) vahokazo[4].

Boysun tumanida san'atning ota merosligi, davomiyligi hozirgacha uzilmagan va «Boysun» folklor-etnografik xalq ansambli buning tirik misolidir.

Boysun “Mavrigi” kuyida ham bo'ysunmas tuyg'ularni jilovlab turadigan bir kuch bor. Kuy bir maromda chalinsada, doyra zarblari har ikkinchi sanoqda urg'uli bo'ladi. Birinchi sanoq'da raqqosning harakati muloyim bo'lsada, ikkinchi sanoqda harakatning tugashidaraqqos keskin harakat qiladi. Umuman olganda “Boysun mavrigi” raqsidagi barcha yaxlit harakatlar bir-biriga ziddiyatli ikkita sanoqda bajariladi. “Boysun mavrigi” si juda qadimdan yaxlit holda saqlanib kelgani aniq. Buni, undagi harakatlar, harakatlardagi imo-ishoralar, raqqosning ijro davomida jiddiy yuz ifodasini saqlashi zamirida bu raqsning qadimiy marosimlarda ijro etilgani va insonning osmon va zamindagi ilohiy kuchlar bilan bog'liqligini talqini borligidan anglash mumkin[5].

Xulosa

Surxondaryo folklor raqslari O'zbekistonning boy madaniy merosining ajralmas qismi bo'lib, milliy raqs san'atining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqot davomida Surxondaryo raqslarining tarixiy asoslari, badiiy va texnik xususiyatlari, shuningdek, ularning milliy raqs san'atiga qo'shgan hissasi tahlil qilindi.

Surxondaryo folklor raqslari O'zbekiston milliy san'atini rivojlantirishda ulkan potentsialga ega bo'lib, ular nafaqat hududiy, balki xalqaro miqyosda ham san'at olamini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu merosni chuqur o'rganish va rivojlantirish xalqning madaniy o'ziga xosligini saqlash yo'lidagi muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

[1]. Qurbonov S. SURXON VOHASI FOLKLOR IJROCHILIK SAN'ATINING LOKAL USLUBLARI //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 120-124.

[2]. QURBONOV S. SURXON RAQS MAKTABIDA “BOYSUN MAVRIGI” RAQSINING QADR-QIMMATI //Journal of Culture and Art. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 100-104.

[3].Saitova E. et al. SURXON RAQS SAN’ATINING SHAKLLANISHI //Oriental Art and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 4. – C. 557-561.

[4]. Abujabborova R. QADIM SURXON RAQSLARI HAQIDA MULOHAZA //Interpretation and researches. – 2023. – T. 2. – №. 3.

[5].Shamilevna A. Z. BOYSUN MAVRIGI //TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 85-88.